

Uzbekistan Airways aviakompaniyasining 2022-yilda qayta tiklangan aviaqatnovlari

2022 21 Dekabr

Yoʻnalish tarmogʻini kengaytirish Uzbekistan Airways yoʻlovchilari uchun maksimal darajada qulaylikni taʼminlash maqsadida har yili amalga oshiradigan vazifa. 2022-yilda Uzbekistan Airways aviakompaniyasi nafaqat bir qator yangi yoʻnalishlarni ochdi, balki dunyoning eng koʻp tashrif buyuradigan shaharlariga parvozlarni tikladi.

Ulardan birinchisi Rossiyadagi eng yirik kurort shahri – **Sochi** boʻldi. Joriy yilning 30-yanvaridan boshlab Toshkent – Sochi – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha muntazam aviaqatnovlar tiklandi. Yil davomida Rossiyaning kurort shahriga parvozlari soni sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunga qadar Uzbekistan Airways Toshkentdan Sochiga, payshanbadan tashqari, har kuni, Namangandan – seshanba va payshanba kunlari parvozlarni amalga oshirmoqda.

Boku – Uzbekistan Airways yangidan parvoz qila boshlagan navbatdagi shahar boʻldi. 8-martdan boshlab uzoq tanaffusdan soʻng aviakompaniya yoʻlovchilari dunyoning eng goʻzal shaharlaridan biriga tashrif buyurish imkoniga ega boʻldi. Mashhur «Brilliant qoʻl» filmi suratga olingan koʻchalar boʻylab kelgusi hafta sayr qilishingiz mumkin: Toshkentdan Ozarbayjon poytaxtiga reyslar seshanba va payshanba kunlari amalga oshiriladi.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasining eng uzoq kutilgan reysi romantika va muhabbat shahri – **Parij** boʻldi. 2022-yil aprel oyida ikki yillik tanaffusdan soʻng aviakompaniya Fransiya poytaxtiga parvozlari qayta tiklangani haqida eʼlon qildi. Parij mavsumiy parvozlari amalga oshiriladigan shaharlardan biri, shu sababli Fransiya poytaxtida bahorgi taʼtillaringizni oldindan rejalashtirishingizni maslahat beramiz.

Joriy yilning avgust oyida dunyodagi eng yirik shaharlardan biri – **Tokioga** ham parvozlari tiklandi. «Quyosh chiqayotgan mamlakatga» kelgusi yilda sayohat qilishingiz mumkin, shuning uchun Tokioda bajarilishi kerak boʻlgan ishlar roʻyxatini hozir tuzishni taklif qilamiz.

Shu yilning kuzida Uzbekistan Airways barcha yo'llar haqiqatdan ham Rimga olib borishini isbotladi. Aviakompaniya Italiyaning ikkita shahri – **Milan va Rim** shaharlariga parvozlarni tikladi. Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Italiyaga ilk parvozini 2000-yilda Toshkent – Rim – Toshkent, 2007-yilda esa Toshkent – Milan – Toshkent yo'nalishi bo'yicha amalga oshirgan. Biroq, 2019-yilda aviakompaniya koronavirus COVID-19 infeksiyasi tarqalishi sababli bir qator davlatlar, jumladan, Italiya bilan parvozlarni to'xtatdi.

Ikki yil o'tib, 19-avgust kuni Milan Malpensa xalqaro aeroporti Uzbekistan Airways aviakompaniyasining 227 nafar yo'lovchisini qabul qildi. Aviakompaniya Urganch – Milan – Toshkent yo'nalishi bo'yicha ilk parvozni amalga oshirishi munosabati bilan Urganch xalqaro aeroportida xonanda va Uzbekistan Airways elchisi Sevara Nazarxon ishtirokida tantanali tadbir tashkil etildi. Oradan bir oy o'tib Uzbekistan Airways yo'lovchilari dunyoning eng go'zal shaharlaridan biri bo'lgan Rimga sayohat qilish imkoniga ega bo'ldi. Eslatib o'tamiz, Rim va Milan mavsumiy parvozlarni amalga oshiriladigan shaharlar qatoriga kiradi. Rim tatillarini Italiya shaharlarida o'tkazish imkoniyatini boy bermang.

Sovuq havo boshlanishi bilan Uzbekistan Airways yo'lovchilari qishki ta'tilni tropik jannat – **Kuala-Lumpurda** o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Toshkent va Malayziya poytaxti o'rtasidagi munosabatlar mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yo'lga qo'yilgan: Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Kuala-Lumpurga parvozlarni 1992-yilda amalga oshirishni boshlagan. Biroq, 2020-yilda koronavirus pandemiyasi tufayli o'zgarishlar paydo bo'ldi va parvozlarni to'xtatildi. Oradan ikki yil o'tib, 1-noyabr kuni Kuala-Lumpur xalqaro aeroporti Uzbekistan Airways yo'lovchilari uchun o'z eshiklarini ochdi. Yil davomida yoz hukmronlik qiladigan mamlakatga har seshanba va juma kunlari Toshkentdan parvoz qilish mumkin.

Agar yaqinlashib kelayotgan qishki ta'til uchun yo'nalish tanlashda qiynalayotgan bo'lsangiz, Davlat statistika qo'mitasining yangi ma'lumoti sizga yordam beradi. Unda (https://t.me/statistika_rasmiy/3008) o'zbekistonliklar orasida mashhur dam olish maskanlari ro'yxati keltirilgan. 2022-yilda Turkiya eng sevimli davlatga aylandi, unga 202,1 ming O'zbekiston fuqarosi tashrif buyurdi. Keyingi o'rinda – BAA 87,9 ming fuqaro, Saudiya Arabistoni esa 49 ming sayohatchilar bilan uchinchi o'rinni egallagan. Ro'yxatga Uzbekistan Airways aviakompaniyasi muntazam qatnovlarni amalga oshiradigan Janubiy Koreya, AQSh, Gruziya, Hindiston va Germaniya ham kiritilgan.

Kelgusi 2023-yilda Uzbekistan Airways aviakompaniyasi O'zbekiston shaharlari va dunyoning mashhur davlatlari o'rtasida yanada ko'proq parvozlarni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda. Yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlarimiz, rasmiy veb-saytimiz orqali kuzatib boring va Uzbekistan Airways bilan dunyoni kashf eting.

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniya agentlaridan yoki www.uzairways.com rasmiy saytidan 3% chegirma bilan xarid qilib olishingiz mumkin.